

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI BANK TERMINLARINING PAYDO BO'LISHI

Negmatova Mumtozbeqim Ulug'bek qizi
O'zDJTU, 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bank terminologiyasi haqida so'z yuritilgan bo'lib, terminlarning paydo bo'lishi, ularning o'zbek va ingliz tillarida qay tarzda yasalishi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek, bank sohasida ko'p qo'llaniladigan terminlarning qanday vositalar yordamida yasalishi tahlil etilgan.

ABSTRACT

This article provides information about banking terminology and gives information about the emergence of terms, how they are formed in Uzbek and English languages. It is also analyzed what tools are used to create terms that are often used in the banking sector.

Key words: banking sector, terms, terminology, tools, affix, abbreviation, conversion, compound.

Bizga ma'lumki, globallashuv jarayonining tezkorlashuvi ilm-fanning barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu esa insondan yanada ko'proq izlanish, atrofdagi tushuncha va hodisalarning mohiyatini va ularning kelib chiqish asoslarini o'rganishni talab qilmoqda. Shu o'rinda bank sohasining ham bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligiga ham guvoh bo'lmoqdamiz. Bank tushunchasi nisbatan yangi tushuncha bo'lib, tarixda banklar paydo bo'la boshlagandan buyon bugungi kungacha qamrovi keng bo'lib bormoqda. Hozirda bank nimaligini yoki unda qo'llaniladigan terminlarning ma'nosini bilmaydigan shaxslarni topish mushkul. Ammo terminlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, ularning paydo bo'lishi va yasalishi haqidagi bilimlar hamma uchun ham yetarli emas.

Avvalambor, termin tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, uni turlicha qabul qilish mumkin. Mantiqshunoslar uchun termin aniq obyektga tegishli tavsiflar yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin. Fan va texnikada esa termin- sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoki chegaralanadi. Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi.

Termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda juda ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan. Ammo ularning barchasida termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida ifoda etiladi.

Terminlar tilga tashqi va ichki omillar vositasida kirib keladi. Tashqi omilga chetdan so'z kirib kelishini aytadigan bo'lsak, ichki omil vositasida tilning boyishiga tilda mavjud so'zlardan yangi so'zlar yasash va shevadan so'z olish kabilarni kiritishimiz mumkin.

O'zbek tili bank terminlarining aksar qismi rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Bank terminologiyasida rus tilidan o'zlashgan aksiya, bankomat, birja, faktura kabi bir qator terminlar mavjud.

Shu bilan bir qatorda, bank sohasida ingliz tilidan kirib kelgan terminlar ham uchraydi. Ammo ularning aksar qismi o'zbek tiliga rus tili vositasida kirib kelgan. Bunga inflyatsiya, import, eksport, konsalting, rezident kabi terminlar yaqqol misol bo'la oladi.

Tilning boyishiga xizmat qiluvchi, ichki omil hisoblangan so'z yasash haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu hodisada yangi ma'noli so'z hosil qilinadi. U lug'aviy ma'noning o'zgarishi bilan paydo bo'lib, bir turkumdan boshqasiga o'tishi mumkin. So'z yasalishi natijasida so'zning shakli o'zgaradi va bir paytda yangi ma'no bilan yangi shakl vujudga keladi.

O'zbek tilida so'z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, semantik abbreviatsiya kabi usullari bor. Bulardan morfologik usul hisoblangan affiksatsiya va sintaktik usul hisoblangan kompozitsiya hodisalari ko'p qo'llaniladi.

Morfologik usulda o'zak va negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. Bu qo'shimchalar affikslar hisoblanib affiksatsiya jarayonini hosil qiladi. Masalan,

iste'mol+chi- iste'molchi,
shart+noma- shartnoma,
no+rezident- norezident,
ta'sis+chi- ta'sischi,
qarz+dor- qarzdor va hokazo.

Yuqoridagi misollarda ko'rib turganimizdek o'zakka qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z, termin yasalgan.

Sintaktik, ya'ni kompozitsiya usulida yasalgan terminlarga to'xtaladigan bo'lsak, hisob va varoq so'zlaridan hisobvaraqa, valyuta va kurs so'zlaridan valyuta kursi, aksiyadorlik va jamiyat so'zlaridan aksiyadorlik jamiyati kabi so'zlarni yasalganini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilining bank terminologiyasida QQS(qo'shilgan qiymat solig'i), STIR(soliq to'lovchining identifikatsion raqami), INI(iste'mol narxlari indeksi) kabi terminlar ham faol bo'lib, ularni abbrevatsiya usulida yasalganiga guvoh bo'lamiz.

Ingliz tili bank terminologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu tilda ham terminlar chetdan kirib kelgan so'zlar va ingliz tilida qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlardan tarkib topgan. Shuningdek, abbreviatsiya usuli orqali vujudga kelgan terminlar ham ko'p qo'llaniladi. Ularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

ACH (Automated Clearing House).

APR (Annual Percentage Rate).

APY (Annual Percentage Yield).

ATM (Automated Teller Machine).

Certificate of deposit (CD) va boshqalar.

Affiksatsiya usuli yordamida yasalgan so'zlar:

Account+er- accounter

Alter+tion- alteration

Endorse+ment- endorsement

Invest+ment- investment

Kompozitsiya usulida yasalgan so'zlar:

Bank+rupt- bankrupt

Over+draft- overdraft

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, har ikki tilning ham bank sohasida qo'llaniluvchi terminlari bir-biriga o'xshash tarzda paydo bo'ladi. Ya'ni, bank sohasida qo'llaniluvchi aksar terminlar tillarning tashqi omillari vositasida boyishi evazida vujudga kelgandir. Undan tashqari har ikki tilda ham so'z yasash orqali vujudga kelgan terminlar mavjud. Bu o'rinda esa, affiksatsiya va kompozitsiya usullari yetakchilik qiladi. Shuningdek, ingliz tilida abbreviatsiya usulida yasalgan terminlar o'zbek tiliga nisbatan ko'p qo'llanilganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- Abdullayeva Sh. Bank ishi. Toshkent, 2017
- Barotov.Z Iqtisodiy matnlarda neologiznlarning tarjima qilinishi. Samarqand, 2013.
- Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019.
- Tog'ayev S. Bank ishi uslubiy qo'llanma. –Samarqand, 2016.
- Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari. - Tashkent, 1933.

Foydalanilgan saytlar :

- finlit.uz
- americanbanker.com